

2022 – yilning yanvar – mart oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 – yilning yanvar– mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 752,0 mlrd so‘mni yoki 2021 – yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 2 689,0 mlrd so‘mni (102,5 %), o‘rmon xo‘jaligida – 33,8 mlrd so‘mni (101,7 %), baliqchilik xo‘jaligida – 29,2 mlrd so‘mni (76,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.



2 752,0

Xorazm viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd so‘m

01



2 689,0 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02




33,8 O‘rmon xo‘jaligi

03




29,2 Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2022– yilning yanvar– mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 97,7 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,2 %i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,1 %i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2022– yilning yanvar– mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Urganch (316,2 mlrd so‘m) va Gurlan (293,5 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahri (12,5 mlrd so‘m), Tuproqqal‘a tumani (63,9 mlrd so‘m) va Urganch shahrini (114,5 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (102,0 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Yangibozor (105,2 %), Qo‘shko‘pir (103,4%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 667,2 mlrd so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 106,0 mlrd so'mni (114,6 %), chorvachilik mahsulotlari– 2 561,2 mlrd so'mni (101,9 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

4,0 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




96,0%
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 92,3 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,1 %i – fermer xo'jaliklariga, 2,6 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2022– yilning yanvar– mart oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumanida (11,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (99,1 va 97,9%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Yangiariq tumanida (11,1 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Tuproqqal‘a tumanida (2,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangiariq tumanida (84,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xiva tumanida (0,3 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2022– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 106,0 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 114,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida sabzavot ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi Yangiariq (1,8 ming t.), Bog‘ot (0,6 ming t.), Urganch (0,4 ming t.) va Xonqa (0,2 ming t.) tumanlarida kuzatildi.


2022– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3,4 ming t. sabzavot (2021– yilning yanvar– martiga nisbatan 23,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 71,6 % gishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





Xorazm viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, t.




Chorvachilik



2022– yilning yanvar– mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 561,2 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,0 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 38,6 ming tonna go‘sh (2021– yilning yanvar– martiga nisbatan 1,1 % ga ko‘p), 210,8 ming tonna sut (1,9 % ga ko‘p), 100,9 mln dona tuxum (7,5 % ga kam), 1,6 ming dona qorako‘l teri (0,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarilgan, 1 318,4 tonna baliq (28,5 % ga kam) ovlangan.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 38,6 ming tonna go'sht (2021–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,1% ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 97,1%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Xorazm viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, t.




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 210,8 ming tonna sut (2021– yilning yanvar– martiga nisbatan 1,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,6% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, t.




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 100,9 mln dona tuxum (2021–yilning yanvar–martiga nisbatan 7,5% ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 66,3% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi,tonna



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1318,4 tonna (2021– yilning yanvar– martga nisbatan 28,5 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 45,3 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, t.




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 %- fermer xo‘jaliklari hissasiga, 91,9 % - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,9 % - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 14,8 % - fermer xo‘jaliklariga, 82,5 % - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,7 % I qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Otlar umumiy sonidan 12,6 % fermer xo‘jaliklariga, 86,7% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,8 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,5 % fermer xo‘jaliklariga, 64,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 20,9 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 949,8 mingtaga yetdi.

2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 22,0 mingtaga (2,4 %) ko'paydi.

2022–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Xorazm viloyati bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




Sigirlar


Soni, ming bosh




O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 360,1 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 8,0 mingtaga (2,3 %) ko'paydi.

2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




Xorazm viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarining umumiy bosh soni 465,9 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 14,0 mingtaga (3,1 %) ko'paydi.

2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, jami qo'y va echkilarining 82,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 5,7 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 108 boshga (1,9 %) ko'paydi.

2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar, xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 86,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




**Xorazm viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 044,8 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 186,7 mingtaga (3,2%) ko'paydi.

2022– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 64,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96
• 71-202-78-89